

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI  
QO‘QON UNIVERSITETI  
OSIYO XALQARO UNIVERSITETI  
BASHKENT UNIVERSITETI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI ILMIY-  
TADQIQOT MARKAZI (TURKIYA)  
XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI (TOJIKISTON)  
TASHENOV UNIVERSITY (QOZOG‘ISTON)**

**ALISHER NAVOIY ADABIY VA  
ILMIY MEROSINI O‘RGANISH  
MASALALARI**

**№ 71**

**(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)**

**2026-yil 6-fevral**

**TOSHKENT – 2026**

**BBK 438.15,312.1**

**UO‘K 315,43(5T)**

**A 78**

Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari / –  
– Toshkent: Yashil yaproq nashriyoti, 2026. – 356 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Qo‘qon universiteti, Osiyo xalqaro universiteti, Bashkent universiteti Alisher Navoiy nomidagi ilmiy-tadqiqot markazi (Turkiya), Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston), Ozarbayjon bilimlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti, Tashenov university (Qozog‘iston) hamkorligida 2026-yil 6-fevral kuni o‘tkazilgan Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan 71-ilmiy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

**(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar)**

**Tahrir hay’ati:**

Maqsud ASADOV, f.f.d., prof., institut direktori o‘rinbosari

Qodirjon ERGASHEV, f.f.d., yetakchi ilmiy xodim

Burobiya RAJABOVA, f.f.n., yetakchi ilmiy xodim

Sayfiddin RAFIDDINOV, f.f.n., katta ilmiy xodim

Zulayho RAHMONOVA, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim

Shahnoza RAHMONOVA, kichik ilmiy xodim

Elnura QURBONOVA, doktorant

**To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:**

Sarvinoz OTAQULOVA

Bo‘ritosh NURBADALOVA

**ISBN 978-9941-1378-1-1**

**©Yashil yaproq nashriyoti, 2026**

risola – Qur'on olgan), ham amin (ya'ni vakil qilingan), ham mustafo (ya'ni tanlab olingan), ham mujtabo (ya'ni saralab olingan, mumtoz):

Ey Navoiy, chorayi dardingni qilg'ay ulki, bor

Ham rasulu ham amin, ham mustafo, ham mujtabo.

Tasavvufda, komil inson ruhigina u o'tib ketganidan keyin ham kishiga madad bera oladi, deb qaraladi. Tahlilga tortilgan g'azalda esa Muhammad alayhissalom komillar komili sifatida talqin etiladi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)**

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. T. 2. –Toshkent: Fan, 1983.

2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. T. 4. – Toshkent: Fan, 1985.

3. Ilohiy mo'jizalar. – Toshkent: Cho'lpon, 1995.

4. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K. 1. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.

5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.

6. Muhiddinov M. Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson konsepsiyasi. Filol. f. d. ... diss. avtoref. – Toshkent: Nashriyotsiz, 1995.

7. Farhangi zaboni to'chikā. Iborat az du ʻild. ʻ. I. – Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1969.

8. Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.

## **“NAZM UL- JAVOHIR” ASARIDAGI ARABIZMLAR STILISTIKASI**

**Sirojiddin SOTVOLDIYEV**

**Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası dotsenti v.b.**

**[sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com](mailto:sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com)**

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Nazm ul- javohir” asarida uchraydigan arabizmlarning stilistik va matnshunoslik jihatlari tahlil qilinadi. Asardagi Qur'on oyatlari, hadislar hamda hikmatlarning

manbalari aniqlanib, ularning taxriji, transliteratsiyasi va tarjimasini ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, qo‘lyozma nusxalaridagi farqlar, arabcha matnlarning grammatik va semantik talqini muammolari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari asarning ilmiy-tanqidiy qiymatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** matnshunoslik, Alisher Navoiy, “Nazm ul-javohir”, arabizm, oyat, hadis, “Nasr-u-l-laoliy”, qo‘lyozma.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются стилистические и текстологические особенности арабизмов в произведении Алишера Навои «Назму-л-джавахир». Особое внимание уделено тахриджу аятов и хадисов, а также вопросам транслитерации и перевода арабских цитат. На основе сопоставления рукописных источников выявляются разночтения и уточняется их семантическая интерпретация. Результаты исследования способствуют более точному научному осмыслению текста произведения.

**Ключевые слова:** текстология, Алишер Навои, “Назму-л-джавахир”, арабизм, аят, хадис, “Наср-у-л-лаоли”, рукопись.

## ANNOTATION

This article examines the stylistic and textual features of Arabicisms in Alisher Navoi’s work “Nazmu-l-javokhir”. The study focuses on the identification and verification of Qur’anic verses and hadiths, as well as on the transliteration and translation of Arabic quotations. Differences found in manuscript copies are analyzed from grammatical and semantic perspectives. The findings enhance the scholarly value and critical understanding of the work.

**Key words:** textual studies, Alisher Navoi, “Nazm ul-javokhir”, Arabicism, oyat, hadith, “Nasru-l-laoliy”, manuscript.

Matnshunoslik sohasiga kirib kelgan har bir mutaxassis, albatta, Hazrat “ko‘ngil mulki”ga bir bor bo‘lsa ham “qo‘l solib ko‘rish”ga va bu maxzanning ochqichlarini topishga harakat qiladi. Hazratning “ko‘ngil mulki”da “ma’no abkori xullalari murassa’ etilgan” [1, 136] bir javohir borki, u ham bo‘lsa hikmat-u nazm bo‘stonida qadri baland baholanadigan “Nazm ul-javohir” asaridir. Bu asar hozirga qadar manbashunoslar tomonidan ko‘p bor tadqiq etilgan, o‘rganilgan, ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan va ruboiylari qayta-qayta sharhlangan [2; 3; 4]. Shu bois, asarning yozilish tarixi va tuzilishi haqida to‘xtalmay,

e'tiborni undagi oyat va hadislarini taxrij qilish, ya'ni matn tarkibidagi oyat va hadislarining manbalarini va ularning matnosti vazifalarini aniqlash, arabcha iqtiboslar transliteratsiyasi va tarjimasiga oid ilmiy mulohazalarga qaratamiz.

Ma'lumki, ilmi badi'da turli tillarda yozilgan she'r mulamma' deyiladi. Mazkur san'at talmi' deb nomlanib, hazrat Navoiy ijodiyotida bu san'at juda ko'p uchraydi. Alisher Navoiy hazratlari Qur'oni karimni to'liq yod olgan, o'z ta'birlari bilan aytganda "...ko'prak avqotim Kalomulloh ishtig'oli va aning tafsiri qil-u qoli bila o'tar erdi. Yoki ahodis daryosig'a g'avvoslik qilur erdim" [4, 15]. Shuning uchun ham bu olim zot Qur'on oyatlarining nozil bo'lish sabablaridan ham yaxshi darajada xabardor bo'lgan va o'z fikrlarini quvvatlash uchun ulardan iqtibos keltirishda o'ziga xos mahorat hosil qilgan. Jumladan, "Nazm ul-javohir" muqaddimasining o'zida 21 o'rinda Qur'on oyatlaridan, 5 o'rinda esa hadislardan iqtibos uchraydi. Mumtoz adabiyotshunosligimizda Qur'on yoki hadis so'zlarining she'riyatda ishlatilishi alohida san'at sanalib, u iqtibos deb yuritiladi. "Ilm o'zlashtirmoq" ma'nosidagi bu so'z Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini she'r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalash san'ati nomidir. Musulmon mamlakatlarining shoirlari bu usulga keng murojaat qilib, o'zlarining lirik va liro-epik asarlarda oyatlar va hadislarini keltirganlar. Hadislarga bag'ishlab yozilgan "Arba'in"lar ham iqtibos usulida yozilgan..." [11, 60-61].

"Nazm ul-javohir"dagi birinchi iqtibos Inson surasidan olingan bo'lib, unda "Darhaqiqat, insonga u esga olinadigan narsa bo'lmagan bir zamon kelmadimi?" [5, 584], deyiladi. Hazrat Navoiy nega muqaddimadayoq bu oyatni keltirmoqda? Buning yetarlicha asoslari bor. Mufasssirlarning rivoyatlariga ko'ra, Inson surasining dastlabki o'n oyati hazrat Aliy va Fotima roziyallohu anhumo haqlarida nozil bo'lgan [6, 430]. Suraning 7-10-oyatlarida "Ular nazrga vafo qilarlar va yomonligi keng tarqaladigan kundan qo'rqarlar. O'zlari taomni yaxshi ko'rib tursalar ham uni miskin, yetim va asirlarga berarlar. "Sizlarni faqat Allohning roziligi uchun taomlantiramiz va sizlardan mukofot yoki tashakkur xohlamaymiz. Biz qo'rqinchli, shiddatli, uzun kunda Rabbimizdan qo'rqurmiz" (derlar)" [5, 584], deya hazrat Aliy va Fotima roziyallohu anhumoning fazilatlarini madh etiladi. "Nazm ul-javohir" asari esa hazrat Aliy roziyallohu anhuga nisbat beriladigan "Nasr ul-laoliy" hikmatlarining nazmiy tarjimasini ekani ma'lum-u mashhur. Bu o'rinda alloma ajdodimizning nozik didi ko'zga tashlanmoqda.

Keyingi ruboiyning uchinchi misrasida yana mazkur oyatga ishora qilinib, unda oyatning nozil bo‘lish sababi ochiqatlanadi:

“Bir do‘stqa “hal atä” keldi anga  
kim, zoti aro “la fata” keldi anga”.

Uchinchi misradagi “hal atä” iborasi Inson surasining ilk so‘zlaridir. Shuningdek, ruboiyning to‘rtinchi misrasida esa hadisdan iqtibos keltirilgan: “La fata” («Yigit yo‘q...»). Bu ibora hadisning bir qismi bo‘lib, hazrat Aliy vasf etiladi. Uhud jangida Aliy ibn Abu Tolib roziyallohu anhu bir qo‘lida Islom bayrog‘ini, ikkinchi qo‘lida mashhur zulfiqor qilichini tutib kurashadi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bu ishini maqtaydilar. Hasson ibn Sobit roziyallohu anhu esa bu holatni baytga solib, «Zulfiqordek qilich yo‘q. Aliydek yigit yo‘q» [7, 354], deydi va bu mashhur bo‘lib ketadi. Ruboiyning to‘rtinchi misrasidagi «La fata...» («Yigit yo‘q...») iborasi bilan shu voqeaga ishora qilinmoqda.

Hamddan so‘ng muallif Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga na’t aytar ekan, «...ul Rasul bobida bo‘la olurkim, «’Ana madinat-l-’ilmi wa ’Aliyyun babuha» aning hadis mo‘jiza nizomidin rivoyatidur» [4, 16] deya qayd etadi. Hadisning ma’nosi «Men ilm shahrinman. Aliy esa uning eshigidir» demakdir. Hadisda Rasulullohning fazilatlari bilan birga hazrat Aliyning madhi ham borligi sababidan muallif shu o‘rinda keltirib, ikki tomonlama yutuqqa erishgan: ham Payg‘ambarimizni vasf etgan, ham asarning dunyoga kelishiga sababchi bo‘lgan hazrat Aliy bilan bog‘liq jihatini topa olgan. Hadis matni «Sunani Termiziy»da 3723-raqam ostida shunday keltiriladi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Men hikmat hovlisiman, Aliy uning eshigidir», dedilar» [8, 214]. Hadisning hukmini aksariyat muhaddislar zaif deb aytishgan, ammo imom Hokim o‘z «Mustadrok»ida bu xadisni sahih deb baholagan [9, 58].

Na’t qismida keltirilgan ruboiyda yana ikkita oyatdan iqtibos bor. Har ikkisida ham Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning fazilatlari vasf qilinadi. Alloma shoir ruboiyning birinchi misrasi – «Ul sham’ki, «wa-dz-dzuha» quyoshi yuzidur»dagi «wa-dz-dzuhä» iborasi bilan Qur’oni karimning shu nomli 93-surasi tafsiri bilan tanishib chiqishga bizni undaydi. «Zuh» («Choshgoh») surasi Payg‘ambarimiz da’vat yo‘lidagi mashaqqatlar sabab biroz tushkunlikka tushgan, dushmanlarning ta’na-dashnomlari ostida ruhiyatlari cho‘kkan kunlarda nozil bo‘lib, u zotning haq payg‘ambar ekanliklarini yana bir bor ta’kidlab, Alloh taoloning madadi haqida xushxabar bo‘lib, do‘st-u

dushmanlar orasida Nabiyining yuzini yorug‘ qilgan edi. Shunga ishoratan hazrat Navoiy «wa-dz-dzuhä» quyoshi yuzidur» demoqda. Oyatning ma’nosi: «Choshgoh bilan qasam...» (Zuho surasi, 1-oyat) [5, 597].

Ikkinchi misrada esa «Ma zagho» bila surma chekilgan ko‘zidur» deyish bilan hazrat Navoiy bizga Me’roj voqeasi va unda Rasululloh ko‘rsatgan yuksak odobdan hikoya qiladi. Oyatning mazmuni: «Nigoh burilmadi ham, haddidan oshmadi ham» (Najm surasi, 17-oyat) [5, 498]. Ya’ni u zot Alloh taoloning huzurida buyuk xulq bilan turdilar. Nigohlarini burmadilar ham, haddilaridan oshmadilar ham.

Ushbu ruboiyning uchinchi va to‘rtinchi misrasi yana hazrat Payg‘ambarimiz va Aliy roziyallohu anhuni bog‘laydigan iqtibos bilan bezatilgan. Hazrat Navoiy uchinchi misrada keyingi misrada keltiriladigan hadisning turkiy ma’nosini berib, «O‘zi ul va ul o‘zidur» deydi. Keyin esa «Inni minka fa-anta minni» hadisini keltiradi. Imom Buxoriy rivoyatida hadisning matni «’Anta minni wa ’ana minka» shaklida kelgan [10, 204]. Imom Termiziy, Ibn Moja va imom Ahmad rivoyat qilgan hadisda: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam «Aliy mendandir. Men Aliydandirman. Men ado etishim lozim bo‘lgan narsalarni faqat o‘zim yoki Aliygina ado etadi», dedilar». Hadisning sifati hasan-g‘arib-sahihdir.

Na’t an’anaga muvofiq salovot bilan yakunlangan: «Fa-qul şalawātu-llāhi ’alayhi wa ’ala ’ālihi wa ’aşhābihi bi-lisāni-l-’ajzi wa-r-ridzā, khususan ’alā-s-Siddiqi wa-I-Färüqi wa Ži-n-nürayni wa-’Aliyyini-l-Murtadza» (Tarjimasi: «Ojizlik va rozilik ila «U zotga, u zotning oilasiga va sahobalariga, xususan Siddiq, Foruq, Zinnurayn va Aliy Murtazoga Allohning salovoti bo‘lsin» deb ayt»).

Bulardan tashqari, asar muqaddimasida Shams (1-oyat), Zuho (2-oyat), Baqara (23-, 26-, 30-oyatlar), Rahmon (68-oyat), Isro (70-oyat), Tiyn (4-oyat), Najm (3-4-oyatlar), Voqi’a (22-23-oyatlar), Nahl (90-oyat), Fath (1-3-oyatlar), Inson (18-oyat), Hud (44-oyat) suralaridan iqtiboslar olinib, ular yordamida muallif fikrlari kuchli dalillangan. Natijada asar «...fotihasidan xotimasig‘a degincha oyati kalomi Maliki allom bila muzayyan-u, ahodisi Rasuli an’om ’alayhis-solatu va-s-salom bila mubayyan» bo‘lishiga erishilgan.

«Nazm ul-javohir»da ikkita o‘rinda duo ma’nosidagi turg‘un iboralar uchraydi. Birinchisi, hazrat Aliy ismi zikr etilganda «radziya-l-lohu ’anhu wa karrama-l-lohu wajhahu», ya’ni «Alloh undan rozi bo‘lsin va yuzini aziz qilsin» iborasidir. Ikkinchisi esa, muallif o‘zini nazarda

tutganda kamtarlik ila «sattara-1-lahu 'uyubahu wa ghafara Zunubahu», ya'ni «Alloh ayblarini yashirsin va gunohlarini kechirsin» deya munojot qiladi.

«Nazm ul-javohir» asaridagi arabizmlarning asosiy qismi hikmatlardan iborat va ular 268ta bo'lib, arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Avval hikmat berilib, undan so'ng turkiy ruboiy keltiriladi. Hazrat Navoiy asarlarining O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan nashrga tayyorlangan 20 tomlik «mukammal asarlar to'plami» va keyinroq nashr etilgan 10 jildlik «to'la asarlar to'plami»ga kiritilgan «Nazm ul-javohir» asari va ilmiy-tanqidiy matni bilan tanishish chog'ida, arabiy hikmatlarning imlosi, transliteratsiyasi va tarjimasi bilan bog'liq ayrim mulohazalar tug'ildi. Masalan, 57-ruboiyga asos bo'lgan hikmatni mutolaa qilamiz: «حُسْنُ الْخُلُقِ غَنِيمَةٌ». Hikmatda gapning egasi izofaviy birikmadan iborat. Uni o'zbek tiliga so'z birikmasining moslashuv usulida o'girish har doim ham o'zini oqlamaydi, ya'ni “xulqning chiroyliligi” tarzida. Ba'zan sifatlovchi-sifatlanmish (bitishuv) usuli asl tildagi ma'noni aniqroq ifodalashga yordam berishi mumkin. Demak, ushbu izofani «chiroyli xulq», «go'zal xulq» yoki kalkalash yo'li bilan «husnixulq» deb o'girish samaraliroq bo'ladi: «Husnixulq boylikdir».

Asardagi 69-ruboiyga asos bo'lgan hikmat quyidagicha: «دَاءُ النَّفْسِ وَنَعْمُ الْحَرِصِ», ya'ni «Kishining ofati – xirsining injiqligidan deb bil». Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy qo'lyozmalar fondi va Hamid Sulaymon nomidagi qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan asarning bir nechta nusxalari bilan tanishilganda, ayrimlarida mazkur hikmat «دَوَاءُ النَّفْسِ دَفْعُ الْحَرِصِ» shaklida yozilgani ma'lum bo'ldi. Shunda uning ma'nosi: «Nafsning davosi hirsdan kechmoqdir» bo'ladi. Bu ma'noni ruboiyning oxirgi misrasi ham tasdiqlaydi: «Kechmak mundin aning davosi bilg'il». Bu ruboiy ham, uning asosi bo'lgan hikmat ham mantiqan o'zidan oldingi 68-ruboiy va hikmatning davomidir: «دَاءُ النَّفْسِ الْحَرِصُ» – «Kishiga alam hirsdan yetadi». Ruboiyning umumiy mazmunida nafsdagi dard hirs bilan bog'liqligiga e'tibor qaratilmoqda: «...nafsga hirsdin yetar dard oxir». Unday bo'lsa, bu dardni qanday davolash kerak? Bu savolga 69-hikmat va ruboiy javob bo'lib kelgan, ya'ni: «Nafsning davosi hirsni daf qilmoqdir». Demak, ayrim qo'lyozma nusxalarda uchragan «دَوَاءُ» va «دَفْعُ» so'zlari hikmatni to'g'ri o'qish va tushunishga yordam bera oldi.

Mulohazalarimizga xulosa o'laroq, quyidagilarni ta'kidlashni istardik:

1. Turkiy matn va tabdilda arabcha hikmatlarning original til va transliteratsiya shaklida berilishida arab tili grammatikasi xususiyatlarini hisobga olish zarur. Misol uchun, aksariyat hikmatlarda «bir-birini taqozo qiluvchi buyruq maylidagi fe'llar» ishlatilgan (o'zbek tilidagi «...sang, ...san»ga o'xshash). Masalan:

«عَدَّبَ عِيَالَكَ تَنَفَعَهُمْ» «Ahlingga odob bersang, ulardan foyda ko'rasan».

«أَحْسِنُ إِلَى الْمُسِيئِ تَسُدُّهُ» «Yomonga yaxshilik qilsang, uni bo'ysundirasan».

«بِغِ الدُّنْيَا بِالْآخِرَةِ تَرَبِّحُ» «Bu dunyoni oxirat evaziga sotsang, xursand bo'lasan».

2. Qo'lyozmalarda arabcha hikmatlardan oldin ba'zan «ومن كلامه» va «كلامه», hikmatlardan keyin esa ba'zan «صدق الأمير», «صدق» kabi («Uning so'zidan», «Uning so'zi», «Amir rost aytibdi», «U rost aytibdi» ma'nosida) birikmalar keladi. Ularni hikmatning umumiy ma'nosiga qo'shib yuborish mazmunga daxl qiladi: «جد بما تجد صدق الأمير» - «Topganingga shukr qil yaxshi ishdir». Hikmatning asl matnini «Topganingga qanoat qil» deb o'g'irish maqsadga muvofiq. Keyingi ibora esa «Amir (ya'ni hazrat Aliy) rost aytibdi» ma'nosini beradi.

3. «Nazm ul-javohir» asaridagi hikmatlar arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Bu mezonni hisobga olish ortidan hikmat va ruboiylar tartibidagi kichik o'zgarishni ham payqash mumkin bo'ladi. Masalan, 171-hikmat «ع» ('ayn harfi bilan boshlangan) so'z bilan boshlanadi. 170-hikmat esa «غ» (g'ayn harfi bilan boshlangan) so'z bilan boshlangan. Asarning abjadiy tartibiga bo'ysunilsa, ushbu hikmatlar o'rin almashgan, deb o'ylash mumkin. Ammo asarning qo'lyozma nusxalari orasida 171-hikmat «غلى»(ghala) so'zi bilan berilgan nusxalar ham bor. Bu so'z hikmatning umumiy mazmuniga «علا» ('ala) so'zidan ko'ra munosibroq bo'lib chiqadi: «غلى قدر المتقين» - «Taqvodorlarning qadri baland bo'ldi».

Demak, «Nazm ul-javohir» asarida kelgan 21 ta oyat, 5 ta hadis, 268 ta hikmatning manbalarini aniqlash, taxrij qilish, transliteratsiyada to'g'ri ifodalash va ma'nolarini to'g'ri talqin qilish orqali asarning ilmiy qimmatini yanada ortadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. // To'la asarlar to'plami. Toshkent: G'afur G'ulom. 2011.

2. Rashidova M. «Nazm-u-l-javohir» asarining ilmiy-tanqidiy matni (monografiya). –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.
3. Rajabova M. Alisher Navoiyning she‘riy durdonasi. –Toshkent: Fan, 2008.
4. Alisher Navoiy. Nazm-u-l-javohir (ilmiy-tanqidiy matn. Tayyorlovchi M.Rashidova). -Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.
5. Qur‘oni Karim va o‘zbek tilidagi ma‘nolar tarjimasi (m-ufassir shayx Muxammad Sodiq Muhammad Yusuf). Toshkent: Hilol-nashr, 2018.
6. Ab-u Lays Samarqandiy. Bahru-l-ulum. 3-jild. -Bayrut: Dor-u-l-kutub, 1993.
7. Devoni Xasson ibn Sobit. «Al-mavsu‘atu-sh-she‘riyya» ensiklopediyasi. -Bayrut, 2008.
8. Imom Termiziy. Jome‘u-t-Termiziy. 6-jild. Bayrut: Dor-u-l-fikr, 2000.
9. Imom Xokim. Mustadrak. Bayrut: Dor-u-l-kutub, 1996.
10. Imom Buxoriy. Al-Jome‘u-s-sahih. 3-jild. - Bayrut: Dor-u-l-fikr, 1999.
11. Hojiahmedov A. She‘r san‘atlari va mumtoz qofiya. – T.: O‘qituvchi, 1999.
12. Sirojiddin Sotvoldiev. (2024). AUTOANTONYMY AND ENANTIOSEMY: A COMPARATIVE LINGUISTIC ANALYSIS OF OPPOSITIONAL MEANINGS IN LANGUAGE. American Journal of Philological Sciences, 4(12), 125–129. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume04Issue12-22>
13. Сотволдиев, С. (2023). Важность развития навыка использования инфографики в уроках арабского языка для улучшения коммуникативных навыков студентов. Арабский язык в эпоху глобализации: инновационные подходы и методы обучения, 1(1), 69–72. <https://doi.org/10.47689/ATGD:IYOM-vol1-iss1-pp69-72-id28397>
14. SOTVOLDIEV, S. (2024). Lexical-Semantic And Functional Analysis Of Translations From The Arabic Press. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 39, 15-17.

## MUNDARIJA

### ALISHER NAVOIY ASARLARI POETIKASI

<b>Boqijon To‘xliyev</b> (O‘zbekiston). Ijodkor surati va siyrati Navoiy talqinida.....	3
<b>Sultonmurod Olim</b> (O‘zbekiston). Bir shohbayt tahlili yoxud Navoiy ulug‘lagan “bir turk” kim edi?.....	10
<b>Obidaxon Fayzullayeva</b> (O‘zbekiston). Navoiy qit‘alarida poetik obraz masalasi.....	18
<b>Nazora Bekova, Oqila Zuxurova</b> (O‘zbekiston). Alisher Navoiy asarlarida olti va sakkiz raqamlarining ramziy-majoziy ma‘nolari.....	23
<b>Axadjon Muhammadiyev</b> (O‘zbekiston). Navoiy sh‘eriyatida Naqshbandiya ma‘rifati talqini.....	30
<b>Dildoraxon Abdullayeva, Husnida Madaminova</b> (O‘zbekiston). Alisher Navoiy chistonlari poetikasi.....	36
<b>Elmurod Nasrullayev, Rahim Mardanov</b> (O‘zbekiston). Alisher Navoiy she‘riyatida qosid obrazining turli mazmunda qo‘llanishiga doir.....	42
<b>Sayfiddin Rafiddinov</b> (O‘zbekiston). Navoiy qita‘larida hirs-u havas talqini.....	47
<b>Otabek Jo‘raboyev</b> (O‘zbekiston). Navoiy lirikasida bir nozik masalaning berilishi.....	53
<b>Sofiya Jumayeva</b> (O‘zbekiston). Raqam simbolikasi va lirik obrazlilik.....	58
<b>Munisjon Hakimov</b> (O‘zbekiston). Navoiy lirikasida shamol timsolining poetik talqini.....	64
<b>Barno Isakova</b> (Qirg‘iziston). Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida avliyo ayollar.....	67
<b>Ziyoda G‘afforova</b> (O‘zbekiston). Na‘t g‘azallarining bosh qahramoni.....	71
<b>Sirojiddin Sotvoldiyev</b> (O‘zbekiston). “Nazm ul-javohir” asaridagi arabizmlar stilistikasi.....	76
<b>Sojida Djurayeva</b> (O‘zbekiston). Artistic interpretation of hadiths in the works of Alisher Navoi.....	84
<b>Tuyg‘un Xolmatov</b> (O‘zbekiston). Alisher Navoiyning shoh so‘zi bilan bog‘liq talqinlardagi mahorati.....	89
<b>Maqsud Maxsumov</b> (O‘zbekiston). Alisher Navoiy ijodida tasavvuf ta‘limotiga oid nafs darajalarining badiiy talqini.....	95

**Gulfuza Madirimova** (O‘zbekiston). Alisher Navoiy g‘azallarida talmeh badiiy vositasining qofiyada qo‘llanishi.....101

## **ALISHER NAVOIY “XAMSA”SI VA KOMPARATIVISTIKA MASALALARI**

**Faridaxon Karimova** (O‘zbekiston). Navoiy kechirimlilik fazilati xususida.....107

**Burobiya Rajabova** (O‘zbekiston). Navoiy va hakimlar.....112

**Shoiraxon Xo‘jayeva** (O‘zbekiston). “Sab‘ai sayyor” dostonida dunyo obrazining ramziy, estetik qatlamlari.....122

**Adolat Nuraliyeva** (O‘zbekiston). Alisher Navoiy “Xamsa”sida Jamshid va Jomi jam talqinlari.....127

**Sardorbek Umarov** (O‘zbekiston). Futuvvat g‘oyasining Navoiy dostonlaridagi badiiy talqinlari.....133

**Hafiza Axmedova** (O‘zbekiston). Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni strukturasi maktubning o‘rni.....140

## **ALISHER NAVOIY VA ADABIY TA‘SIR MASALALARI**

**Ergash Ochilov** (O‘zbekiston). Tashbehlar silsilasi.....147

**Sanobar To‘laganova** (O‘zbekiston). Turkiy ulus qayg‘usi: Alisher Navoiy va jadidlar.....155

**Zeboxon Qobilova, Dilzodaxon Abdullayeva** (O‘zbekiston). Radif va uning badiiy ifodadagi o‘rni.....162

**Shahlo Hojiyeva**. Cho‘lpon ijodida Alisher Navoiy an‘analari.....174

**Salomat Matkarimova** (O‘zbekiston). Qasidavislikda Navoiyga ergashish.....181

**Dilmurod Asqarov** (O‘zbekiston). Sultonxon To‘ra Ado ijodida Navoiy an‘analari.....186

**Nilufar Karimova** (O‘zbekiston). XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida Alisher Navoiy an‘analari va mahalliy xususiyatlarning uyg‘unligi.....195

**Shohista Jumaboyeva** (O‘zbekiston). Uvaysiy ijodida Navoiy an‘anasi.....200

## JAHON NAVOIYSHUNOSLIGI: BUGUNGI YUTUQLAR VA YANGILIKLAR

- Almaz Ülvi Binnatova** (Ozarbayjon). Maqsud Shayxzodaning “G‘azal mulkining sultoni” asarida Navoiy ijodining ilmiy-nazariy tahlili.....205
- Yashar Qosim** (Ozarbayjon). Alisher Navoiyning ozarbayjonlik muxlisi va izdoshi.....216
- Abdurrahman Güzel, Ali Fuat Bilkan** (Turkiya). Alisher Navoiy “Yusuf va Zulayho” asarini yozganmi?.....227
- Qodirjon Ergashev** (O‘zbekiston). Bosh qahramon va xalaskorlik missiyasi (Alisher Navoiy va dunyo adabiyotining boshqa vakillari ijodi misolida).....238
- Zulayho Abdurahmon** (O‘zbekiston). Istiqlol navoiyshunosligida Nurboy Jabborovning o‘rni.....248
- Faiq Ələkbərli** (Ozarbayjon). Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiyning dunyoqarashida turk falsafasi va turk ta’limotining falsafiy o‘rni.....255
- Назгуль Турдубаева Шаршеналиевна** История изучения наследия Алишера Навои в Кыргызстане.....262
- Bo‘ritosh Nurbadalova** (O‘zbekiston). Professor A.Abduq‘ofurovning “Ma’rifat dengizining duri” tadqiqoti xususida.....280

### ALISHER NAVOIY VA XALQ OG‘ZAKI IJODI

- Yo‘ldosh Rahmatov** (O‘zbekiston). Alisher Navoiy she’riyatida xalq maqollarining o‘rni.....285
- Farrux Bafoyev** (O‘zbekiston). Alisher Navoiy va qissaxonlik an’anasi.....292
- Abdul Hanon Arslon** (Afg‘oniston). Alisher Navoiy va Afg‘oniston o‘zbeklarining og‘zaki adabiyoti.....297
- Vazira Davirova** (O‘zbekiston). Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi xalq maqollari va ularning tahlili.....300

### ALISHER NAVOIY VA JAHON TILSHUNOSLIGI

- Ayman Aqynbekova** (Qirg‘iziston) Turk yozma adabiy tilining tarixiy rivojida Alisher Navoiyning o‘rni.....306
- Nargizaxon Umarova** (O‘zbekiston). Navoiy so‘z xususida.....316

<b>Zohida Muqimova</b> (O‘zbekiston). Navoiy asarlarida tasvir vositalarining badiiyati.....	320
<b>Zilola Shukurova, Geelhvan Ko, Umida Elmuratova</b> (O‘zbekiston, Koreya). Alisher Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azali tarjimalariga doir.....	324
<b>Sobira Tirkasheva</b> (O‘zbekiston). Alisher Navoiy ijodida ismlar poetikasining o‘rganilishi.....	334

### **ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI**

<b>Dilnoza Rustamova</b> (O‘zbekiston). “Xamsa” toshbosma nashrlarining manbashunoslik tadqiqi.....	340
<b>Sitora Shomurodova</b> (O‘zbekiston). XIX asr majmua va bayozlarida Alisher Navoiy g‘azallarining matniy tadqiqi.....	344